



<https://interscience.uz/>

ISSN 2181-1709 (P)

ISSN 2181-1717 (E)

SJIF: 3.805 (2021)

**2023/12**

**TA'LIM VA  
INNOVATION  
TADQIQOTLAR**

**ОБРАЗОВАНИЕ И  
ИННОВАЦИОННЫЕ  
ИССЛЕДОВАНИЯ**

**EDUCATION AND  
INNOVATIVE  
RESEARCH**

**TA'LIM VA INNOVATSION TADQIQOTLAR**  
**ОБРАЗОВАНИЕ И ИННОВАЦИОННЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ**  
**EDUCATION AND INNOVATIVE RESEARCH**



№12/2023  
**DEKABR (2)**

**Muassis:**  
 Buxoro davlat universiteti  
 Fan va ta'lim MChJ

**Bosh muharrir:** Ma'murov  
 Bahodir Baxshullayevich

**Jamoatchilik kengashi raisi:**  
 Xamidov Obidjon  
 Xafizovich, Buxoro davlat  
 universiteti rektori

**Mas'ul kotib:** Akramova  
 Gulbahor Renatovna

**Texnik muxarrir:** Davronov  
 Ismoil Ergashevich

**Tahririyat manzili:**  
 Buxoro shahar,  
 Q.Murtazoyev ko'chasi, 16-uy

E-mail:  
 eirjurnal2020@gmail.com

Jurnalning elektron sayti:  
 www.interscience.uz

Jurnal OAK Rayosatining  
 2021 yil 30 sentyabrdagi  
 306/6-son Qarori bilan  
**PEDAGOGIKA,**  
**PSIXOLOGIYA,**  
**FILOLOGIYA, TARIX**  
**FANLARI** bo'yicha falsafa  
 doktori (PhD) va fan doktori  
 (DSc) ilmiy darajasiga  
 talabgorlarning dissertatsiya  
 ishlari yuzasidan asosiy  
 ilmiy natijalarini chop etish  
 tavsiya etilgan ilmiy nashrlar  
 ruyxatiga kiritilgan

Bosishga ruxsat etildi:  
 15.12.2023 y.  
 Qog'oz bichimi 60x84 1/8.  
 b/t.12,5.  
 Buyurtma raqami 1.23  
 «FAN VA TA'LIM»  
 nashriyotida chop etildi.  
 Buxoro shahar

Jurnal 28.07.2021 yilda 9305  
 raqami bilan O'zbekiston  
 Ommaviy axborot vositalari  
 davlat ro'yxatidan o'tgan

Jurnal 2020 yilda tashkil topdi  
 va 2 oyda 1 marta chop etildi.  
 2021 yil noyabr oyidan  
 boshlab har oyda 1 marta  
 o'zbek, rus va ingliz tillarida  
 chop etiladi

«Ta'lim va innovatsion  
 tadqiqotlar» xalqaro ilmiy-  
 metodik jurnalidan ko'chirib  
 bosish tahririyatining roziligi  
 bilan amalga oshiriladi

Maqolada keltirilgan  
 faktlarning  
 to'g'riligi uchun muallif  
 mas'uldir

<b>13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI</b>	
Elquliyeva F. D., Oripov A.U. O'rta masofaga yuguruvchilar mashg'uloti tuzilmasi	7
Fayzullaeva M. A. Implementation of innovation and digital technologies in distance education	12
Gulamov J. B. Masofaviy ta'lim sharoitida talabalarda ma'suliyat ko'nikmalarini shakllantirish mazmuni	18
Haydarov B. T. Kichik yoshdagi bolalar jismoniy faolligini noan'anaviy yondoshuvlar asosida tarbiyalashning pedagogik mexanizmlari	21
Hojiyeva Z. O'. Bo'lajak o'qituvchilarni birgalikdagi ijodiy faoliyatga o'rgatish pedagogik muammo sifatida	25
Husenova A. SH. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini xalqaro dasturlar pisa, pirls, timss, talis, egma va egra asosida o'qish savodxonligini oshirishning tashkiliy- pedagogik xususiyatlari	28
Ibraimov X., Ura'kov Sh. R. Oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari kasbiy faoliyatini talabalarning qoniqishi ko'rsatkichlari asosida baholash texnologiyasi	32
Ibrohimova M. F. Boshlang'ich sinflarda mantiqiy tafakkurni rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish	38
Isakov O. O. Theoretical methodological basis of the development of the spiritual world view in youth	42
Isroilova N. N. Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarining kreativ kompetentligi komponentlari	45
Samiev A.S. Imom al-Buxoriy buyuk muhaddis va ma'rifat asoschisi	49
Istamova Sh. The use of innovative methods in teaching english at academic lyceums	52
Jayliyeva Sh. B. Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifati va samaradorligini oshirishning muhim omillari	54
Jo'rayeva M. M. O'zbekistonda inklyuziv ta'limning Dolzarb masalalari.	58
Jumayev U. T. Maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativ tafakkurni rivojlantirishda art-terapiyaning ta'siri	62
Jumayeva F. F. Huquqiy ta'lim va uning o'zbekiston hududida shakllanishi.	67
Жуманиязов Ш. Она тили таълимда назарий маълумотларни танлашнинг психо-физиологик, педагогик хусусиятлари	69
Жураев Ф. Н. Термодинамик системаларнинг tajribalarda o'rganilishi	73
Kadirova M. T. Bo'lajak arab tili o'qituvchisining pedagogik kompetensiyasining tuzilishi	77
Kadirova N. M. Texnologiya fani darolarida o'quvchilarning kreativ yondashuvini loyihalash usullari asosida rivojlantirish	81
Kambarov N. S. Sharq yakkakurashlari orqali yoshlarni barkamol shaxs etib tarbiyalashning zarurati	87
Komilova F. M. Ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni uyushtirish orqali - ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirish omili	93
Камилова Г. А. Мактабгача ёшдаги болаларда экологик маданиятни ривожлантиришда замонавий ёндашувлар	96
Majidova Sh. K. Bolalar musiqa va san'at maktabi fortepiano chalishni o'rgatishni pedagogik imkoniyatlari va tarixi.	99
Mamajonov O'. T. Oliy ta'lim jarayonida bo'lajak o'qituvchining ma'naviy kompetentlik darajasini belgilovchi omillar	101



## **BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI XALQARO DASTURLAR PISA, PIRLS, TIMSS, TALIS, EGMA VA EGRA ASOSIDA O'QISH SAVODXONLIGINI OSHIRISHNING TASHKILIY-PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI**

*Husenova Aziza Sharipovna,  
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Buxoro davlat universiteti*

*Annotatsiya: Mazkur maqolada xalqaro baholash dastur talablari va ta'lim tizimiga joriy etish tamoyillari haqida so'z yuritish bilan birga, PISA, PIRLS, TIMSS, TALIS, EGMA VA EGRA xalqaro baholash dasturlarining muhim belgilari xorijiy olimlar fikrlariga, ilmiy-tadqiqot ishlariga tayangan holda ochib berilgan. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'quvchilarni xalqaro baholash dasturlari sinovlariga tayyorlash uchun o'quv topshiriqlarini tayyorlash jarayonida e'tibor qaratishi lozim bo'lgan jihatlar yoritilgan*

*Kalit so'zlar: xalqaro baholash dasturlari, PISA, PIRLS, TIMSS, TALIS, EGMA VA EGRA, xorijiy tajribalar, ta'lim sifatini baholash milliy markazi, kasbiy kompetentlik, o'qish savodxonligi, tushunish darajasi, ta'lim tizimi, ko'nikma, topshiriq, tadqiqot, ijodiy fikrlash, axborot kommunikatsion texnologiyalar.*

## **ORGANIZATIONAL-PEDAGOGICAL FEATURES OF IMPROVING THE READING LITERACY OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS BASED ON THE INTERNATIONAL PROGRAMS PISA, PIRLS, TIMSS, TALIS, EGMA AND EGRA**

*Husenova Aziza Sharipovna?  
Doctor of Philosophy scientific degree (PhD) in Pedagogical sciences Bukhara state university*

*Abstract: In this article, while talking about the requirements of the international assessment program and the principles of introduction into the educational system, the important features of the international assessment programs PISA, PIRLS, TIMSS, TALIS, EGMA AND EGRA are based on the opinions of foreign scientists and scientific research works. revealed. Aspects that primary school teachers should pay attention to in the process of preparing educational tasks to prepare students for the tests of international assessment programs are highlighted.*

*Key words: international assessment programs, PISA, PIRLS, TIMSS, TALIS, EGMA AND EGRA, foreign experiences, National Center for Educational Quality Assessment, professional competence, reading literacy, level of understanding, educational system, skills, assignment, research, creative thinking, information and communication technologies.*

## **ОРГАНИЗАЦИОННО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПОВЫШЕНИЯ ЧИТАТЕЛЬСКОЙ ГРАМОТНОСТИ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ НА ОСНОВЕ МЕЖДУНАРОДНЫХ ПРОГРАММ PISA, PIRLS, TIMSS, TALIS, EGMA И EGRA**

*Хусенова Азиза Шариповна,  
доктор философии по педагогическим наукам (PhD), Бухарский государственный университет,*

*Аннотация: В данной статье, говоря о требованиях программы международной оценки и принципах внедрения в систему образования, важные особенности программ международной оценки PISA, PIRLS, TIMSS, TALIS, EGMA И EGRA основаны на мнениях зарубежных ученых и научно-исследовательских работ. Выделены аспекты, на которые следует обратить внимание учителям начальных классов в процессе подготовки учебных заданий по подготовке учащихся к тестам международных оценочных программ.*

*Ключевые слова: международные оценочные программы, PISA, PIRLS, TIMSS, TALIS, EGMA И EGRA, зарубежный опыт, Национальный центр оценки качества образования, профессиональная компетентность, грамотность чтения, уровень понимания, образовательная система, навыки, задание, исследование, творческое мышление, информация. и коммуникационные технологии.*

**Kirish qismi.** O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrdagi "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora tadbirlari to'g'risida"gi 997-sonli qarori bilan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi qoshida "Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazi" tashkil etildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son Farmonida 2030-yilga kelib PISA xalqaro dasturi reytingida jahonning birinchi 30 ta ilg'or mamlakatlari qatoriga kirishiga erishish hamda xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish asosida o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi

fanlardan savodxonlik darajasini baholashga yo'naltirilgan ta'lim sifatini baholashning milliy tizimini yaratish vazifalari belgilangan.

Mamlakatimiz innovatsion taraqqiyot yo'lidan shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir davrda kelajagimiz davomchilari bo'lgan yoshlarning ijodiy g'oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish hamda ilg'or xorijiy tajribalar, xalqaro me'zon va talablar asosida baholash tizimini takomillashtirish, shu yo'lda xalqaro tajribalarni o'rganish, mavjud tizimni har tomonlama qiyosiy tahlil qilish, tegishli yo'nalishdagi xalqaro va xorijiy tashkilotlar, ilmiy tadqiqot muassasalari bilan yaqindan hamkorlik qilish muhim ahamiyatga egadir.

Tadqiqot obyekti va qo'llanilgan metodlar. Jamiyat va hayotda sodir bo'layotgan yangilanishlar ta'lim tizimiga ham yangicha innovatsion yondashuvni, ta'lim, fan va ishlab chiqarish o'rtasidagi integratsiya jarayonlarini yanada tezlashtirishga zamin yaratadi, natijada yangicha innovatsiyalarni ta'lim jarayoniga tatbiq etish dolzarb masalalar qatoridan joy oldi. Ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda xorij tajribalarni o'rganish, tizimga xalqaro standartlar talablarining joriy etilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tajribalarni o'rganish, mavjud tizim bilan qiyosiy, xalqaro va xorijiy tashkilotlar bilan yaqindan hamkorlik qilish, tizimda ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro loyihalarni joriy qilish, zamon talablariga javob beradigan munosib milliy baholash tizimini takomillashtirish muhim sanaladi.

PIRLS – boshlang'ich 4-sinf o'quvchilarining matnini o'qish va tushunish darajasini baholash;

TIMSS - 4- va 8-sinf o'quvchilarining tabiiy-ilmiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonligini baholash;

TALIS – rahbar va pedagog kadrlarning umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'qitish va ta'lim olish muhitini hamda o'qituvchilarning ish sharoitlarini o'rganish;

PISA — 15 yoshli o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholash.

EGRA - (The Early Grade Reading Assessment) baholash modelining maqsadi boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutq malakalarini rivojlantirish, nutqiy ko'nikma va malakalarini hamda o'qish savodxonligini oshirishdan iborat.

EGMA - (The Early Grade Mathematical Assessment) baholash modelining maqsadi 2-4 sinf o'quvchilarining og'zaki hisoblash malakalarini rivojlantirish, mantiqiy fikrlash qobiliyatini o'stirish, matematik savodxonligini oshirishdan iborat.

Bu loyihalar o'quvchi-yoshlarning ijodiy va tanqidiy fikrlash ko'nikmalari, egallagan bilimlarini hayotda qo'llay olish layoqatiga turli xil topshiriqlar orqali baho berish va keyinchalik bu ko'nikmalar rivojlanishiga turtki berishga xizmat qiladi.

Ma'lumki, ta'lim-tarbiya bilan bog'liq barcha sohalar o'zaro hamkorlikda ish olib borishi zarur. Mustahkamlash maktab pedagogik jamoasi va o'quvchilar o'rtasidagi ijodiy muhit, ishni takomillashtirish uslubiy birlashmalarning ichki natijalarini pedagogik kengashda muhokama qilish, ta'minlash fan o'qituvchisining dars jarayoniga integratsiyalashuvi ham imijni oshirishga yordam beradi. Bu esa ta'lim jarayonini yangi sifat va natijaga mos bo'lishini ta'minlashi, shubhasiz.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Yuqoridagi talablarning ta'lim tizimi uchun juda muhim ekanligi, aksariyat xorijiy davlatlardagi kabi ta'lim va fan sohalarini rivojlanishini baholash va monitoring qilish orqali ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan ilg'or tajribalarni sohaga jalb qilish kerakligini anglatadi.

Ta'lim sifatini baholash xalqaro tadqiqotlarida ishtirok etish O'zbekistonga nima beradi?

Tadqiqotlarda olingan natijalar mamlakatdagi ta'lim sifati va uning xalqaro standartlarni hisobga olgan holda egallagan o'rni to'g'risida xulosalar chiqarish imkonini beradi. Milliy ta'lim tizimini isloh qilish, ta'lim mazmunini, pedagog kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish dasturlarini takomillashtirish hamda mutaxassislar tomonidan darsliklarning yangi avlodini yaratishda qo'llaniladi. Xalqaro tadqiqotlar ta'lim sohasidagi milliy tadqiqotlarni sifatli o'tkazishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

PISA - inglizchadan olingan qisqartma bo'lib, Program for international student assessment – o'quvchilarni baholash xalqaro dasturi degan ma'noni anglatadi. Ushbu dastur OECD tomonidan amalga oshiriladigan bo'lib, u dunyo bo'ylab 15 yoshli o'quvchilarning o'qish, matematik va tabiiy-ilmiy savodxonlik darajasini baholovchi xalqaro tadqiqotdir. Tadqiqot an'anaviy ravishda 3 yilda bir marotaba o'tkazilib, har bir davriylikda bittadan yo'nalishga ustuvorlik beriladi hamda bitta innovatsion yo'nalish kiritiladi. 2022 - yilda o'tkazilishi rejalashtirilgan tadqiqotda innovatsion yo'nalish sifatida o'quvchilarning kreativ fikrlash kompetensiyalari ham baholanadi. Unda o'quvchilar maktabda egallagan bilimlarini qanchalik eslab qolganliklari emas, balki olgan bilimlarini real hayotiy vaziyatlarda qo'llay olishlari, ijodiy va mantiqiy fikrlash ko'nikmalari baholanadi.

PIRLS - ingliz tilidagi Progress in international reading and literacy study so'zlaridan olingan bo'lib, o'quvchilarning o'qib tushunish darajasini baholashga mo'ljallangan xalqaro tadqiqot dasturidir. Mazkur

dastur IEA tomonidan har 5 yilda bir marotaba amalga oshirilib, unda PISA dan farqli ravishda boshlang'ich ta'limdagi 4-sinf o'quvchilarining badiiy tajriba orttirish, axborot olish va undan foydalanish ko'nikmalari baholanadi. Ushbu xalqaro dastur bolaning mustaqil inson sifatida rivojlanishida katta ahamiyat kasb etib, boshlang'ich ta'limda tahsil olayotgan o'quvchilarning o'qib tushunish ko'nikmalarini xalqaro miqyosda baholaydi. PIRLS dasturida asosiy e'tibor 4-sinf o'quvchilariga qaratiladi, buning boisi, ushbu rivojlanish davrida o'quvchilar o'qish ko'nikmasini hosil qilgan bo'lib, endi bu ko'nikmadan boshqa fanlarni o'rganishda foydalanayotgan bo'ladi. So'nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida ulkan iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlariga erishilayotganligi barcha sohalarida malakali kadrlar va yetuk mutaxassilarga bo'lgan talabni yanada oshirmoqda. Bu o'z-o'zidan o'quvchilarimizning darslarga qiziqish xususiyatini oshirish va o'qituvchilarning har tomonlama ta'lim tarbiyaga e'tiborini kuchaytirishni talab etadi. PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study) xalqaro tadqiqotdir. Mamlakatlardagi boshlang'ich maktab o'quvchilarining xususiyatlarini aniqlash va baholashga qaratilgan turli darajadagi yutuqlarga olib keladigan turli xil ta'lim tizimlari bilan bog'liq bo'lgan dastur. Albatta, bunday tadqiqot ishchilar, olimlar, metodistlar, o'qituvchilar va ularning otaonalari uchun katta ahamiyatga ega. Ushbu tadqiqotlar Xalqaro ta'lim assotsiatsiyasi tomonidan muvofiqlashtirilgan. PIRLS loyihasi 4-sinf o'quvchilarining o'qish qobiliyatining rivojlanish darajasini aniqlash maqsadida tashkil etilgan. Xalqaro ekspertlarning fikricha, bugungi kunda maktab o'quvchilarining boshlang'ich maktabda keyingi ta'limdagi muvaffaqiyatlari uchun poydevor qo'yilgan. PIRLS 2016 da ishtirok etib, xalqaro tadqiqot PIRLS-2016 XEA ensiklopediyasi eng yaxshi o'quv dasturlari va ishlab chiqish tajribasi bo'yicha noyob axborot materiallarini taqdim etdi. PIRLS tadqiqoti O'zbekistonda boshlang'ich sinf o'quvchilarining ravon so'zlash darajasini xolisona baholash ta'limning ochiqligi va integratsiyasini ta'minlash maqsadida, shuningdek, O'zbekistonni dunyoning yetakchi ta'lim tizimlari xalqaro hamjamiyatga kiritishga tayyorgarlik ko'rilmogda.

TIMSS xalqaro baholash dasturida 4- va 8-sinf o'quvchilarining matematika va tabiiy fanlar bo'yicha egallagan bilim darajasi va sifatini solishtirish hamda milliy ta'lim tizimidagi farqlarni aniqlash bilan bir qatorda, qo'shimcha ravishda maktablarda matematika va tabiiy fanlar bo'yicha berilayotgan ta'lim mazmuni, o'quv jarayoni, ta'lim muassasasining imkoniyatlari, o'qituvchilar salohiyati, o'quvchilarning oilalari bilan bog'liq omillari o'rganiladi.

TIMSS dasturi o'zining birinchi tadqiqotini 1995-yilda boshlagan bo'lib, 2019-yilga qadar har to'rt yilda 1999, 2003, 2007, 2011, 2015 va 2019-yillarda tashkil etib kelindi. Navbatdagi 8-davriylik 2023-yilda amalga oshirilishi rejalashtirilgan. Ta'lim yutuqlarini baholash xalqaro assotsiatsiyasi (IEA) tomonidan tashkil etilgan, bu 4 va 8-sinf o'quvchilarining matematika va ijtimoiy fanlar bo'yicha bilim sifati, darajasi, munosabati va qiziqishlarini aniqlaydi. U har 4 yilda bir marta o'tkaziladi. Ushbu tadqiqot ham PIRLS tadqiqoti singari maktab ma'muriyati va o'qituvchilari o'rtasida qo'shimcha so'rovlar o'tkazadi, fanga xalaqit beradigan asosiy omillarni aniqlab, ta'lim standartlarini taqqoslash imkonini beradi. TIMS 2015 so'roviga ko'ra, AQSH, Singapur, Gonkong, Koreya Respublikasi, Yaponiya, Rossiya va Buyuk Britaniya ta'lim tizimi eng yuqori ko'rsatkichlarga ega. Shuni ta'kidlash kerakki, bularda mamlakatlarda yuqori texnologiyalar, sanoatlashtirish muhim omil etib belgilangan. Guruhlar va sinflardagi talabalar soni esa 16 nafardan oshmaydi.

Hozirgi kunda o'quvchilarning o'qish (EGRA) va matematika (EGMA) bo'yicha qobiliyatlarni baholash tadqiqotlarini tizimga tatbiq etish boshlangan. Mazkur tadqiqotlar boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'zlashtirishini yaxshilash hamda ta'lim jarayonidagi kamchiliklarni aniqlashga yordam beradi. Ushbu baholash tizimi dunyoning 70 dan ortiq mamlakatlarida qo'llaniladi. Shuningdek, PISA, TIMSS, PIRLS kabi o'quvchilar bilimi darajasini baholash uchun xalqaro tadqiqotlar hamda dasturlar tayyorlash uchun yaxshi vosita hisoblanadi.

EGRA va EGMA tadqiqotlari boshlang'ich sinflarni o'qitishda tizimli bo'shliqlarni tashxislash va ularni hal etishning eng maqbul yechimlarini aniqlovchi, o'qish hamda savodxonlik ko'nikmalarini sinovchi ilmiy asoslangan modellar hisoblanadi. Bu tadqiqotlar O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan AQShning Xalqaro Taraqqiyot Agentligi (USAID) bilan hamkorlikda olib borilmoqda. Mazkur loyiha 2019 yil 28 sentyabrda XTV va USAID o'rtasida 50 million dollarga imzolangan besh yillik rivojlanish maqsadlari to'g'risidagi bitimning birinchi tarkibiy qismidir AQShning O'zbekistondagi elchisi Deniyel Rozenblyumning ta'kidlashicha, EGRA va EGMA boshlang'ich sinf o'quvchilarning savodxonligi va matematika bo'yicha ko'nikmalarini baholovchi oddiy, arzon va kuchli vositadir. Bu vosita bolaning bilimi, o'qituvchining dars berishi yoki direktorning maktabni boshqaruv ko'nikmalarini tekshirmaydi. Shuningdek, jarayonda o'tish yoki yomon baho bo'lmaydi. Tibbiyot xodimlari bemorga muolaja belgilash, ko'rikdan o'tkazishdan avval uni tekshiradi. EGRA va EGMA esa boshlang'ich sinflarda o'qish hamda matematika bo'yicha ko'nikmalariga baho beradi. Baholash natijalariga ko'ra yangi o'quv dasturlari, o'qitish uslubi va yondoshuvlar O'zbekiston yoshlarining yaxshi natija ko'rsatishi uchun moslashtiriladi. EGRA (The Early Grade Reading Assessment) baholash modelining maqsadi boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutq



malakalarini rivojlantirish, nutqiy ko'nikma va malakalarini hamda o'qish savodxonligini oshirishdan iborat. EGMA (The Early Grade Mathematical Assessment) baholash modelining maqsadi 2-4 sinf o'quvchilarining og'zaki hisoblash malakalarini rivojlantirish, mantiqiy fikrlash qobiliyatini o'stirish, matematik savodxonligini oshirishdan iborat. Boshlang'ich sinflar davomida matematikadan olingan mustahkam poydevor kelajakdagi muvaffaqiyat kaliti hisoblanadi. Shuningdek, matematika kelajakda ish joyidagi ko'nikmalar va bilimlarni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan fandır. EGMA bolalarning asosiy ko'nikmalarini rivojlantirayotganligini aniqlash imkonini beradi, boshqa matematik ko'nikmalar hosil qiladi va harakatlarni eng yaxshi tomonga yo'naltiradi. Bu esa ta'lim sifatini oshirishda juda muhim. EGMA quyidagi: raqamni identifikatsiya qilish (raqamni aniqlash); kattalik haqida mulohaza yuritish (raqamlarni kamsitish); raqamlarni tan olish (yo'qolgan raqam); qo'shish va ayirish; birinchi va ikkinchi darajalar va so'z muammolarini o'z ichiga oladi. Mamlakatimiz buyuk kelajak sari intilib taraqqiy etgan mamlakatlar ataridan munosib o'rin egallab bormoqda. O'sib kelayotgan avlodning ta'lim tarbiyasini takomillashtirish va samaradorligini oshirish, shuningdek o'quvchilarni mustaqil, erkin fikrlashga o'rgatish maqsadida turli dastur va texnologiyalardan foydalanish zamon talabiga aylanib qolmoqda.

TALIS - (ta'lim muassasalarida rahbarlar va o'qituvchilarning ta'lim va xalqaro xizmati) O'quv va ta'lim muhitini va ta'lim ish sharoitlarini tashkil etish. Ushbu tadqiqot birinchi marta 2008 yilda 24 kishi ishtirokida o'tkazilgan. Ikkinchi bosqich 2013-yilda o'tkazilgan va unda 3 ta davlat ishtirok etgan. 2018-yilda 46 davlat ishtirok etdi. TALIS tadqiqotning mohiyati o'qituvchilar bilan so'rov o'tkazishdan iborat. So'rovda asosan maktab boshqaruvi bo'yicha fikrlar maktab rahbarlari, direktorlar, o'qituvchining ish faoliyatini baholash, maktab muhiti va ularning ishidan qoniqish va ko'p madaniyatli muhitni baholash jarayoni ro'y beradi. O'qituvchilarning so'rovi shuni ko'rsatdiki, turli sohalar mavjud kasbiy rivojlanish, butun o'qituvchilik faoliyati, o'qitishni amalga oshirish o'qituvchining muayyan sinfdagi faoliyati va maktab bilan ijobiy munosabat jamiyatini tuzishga dasturulamal bo'lib xizmat qiladi. Shuni ta'kidlash kerakki, TALIS yagona so'rovlar jamoasidir. O'quv muhitini tashkil etish va o'qituvchilarning ish jarayoni va ta'lim muassasasini baholash muhim vazifadir.

Xalqaro standartlar darajasida yuqori iqtisodiy samaraga asoslangan milliy baholash tizimini yaratish imkonini beradi. O'zbekistonda turli tashkilotlarning yetakchi mutaxassislarini jalb qilgan holda xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etish orqali mahalliy mutaxassislarimizda monitoring tadqiqotlarini o'tkazish madaniyati rivojlanadi, ta'lim sifatini baholashning xalqaro standartlarga moslashuviga olib keladi. Milliy ta'lim sifatini baholashdagi nazorat materiallarini xalqaro tadqiqotlarda qo'llaniladigan nazorat materiallari sifati darajasida ishlab chiqish imkonini beradi.

Xulosa. O'zbekistonda ta'lim tizimiga xalqaro tajribadan kelib chiqqan holda o'quvchilarning bilim darajasini baholash va monitoring qilishning "Milliy dasturi"ni yaratish hozirgi kun talabiga mos keladi. Yana shuni aytish joizki, ushbu dastur zamon bilan ham nafas qadam tashlaydi hamda o'zining baholash mezonlarini zamonaviy talablarga muvofiq ravishda takomillashtirib boradi. O'qituvchilar o'zlarida xalqaro baholash dasturlari talablari asosida o'quv topshiriqlarini tayyorlash ko'nikmasini hosil qilishlari uchun ko'proq o'z ustida ishlashlari, xalqaro tajribalarni o'rganishlari, xorijiy tillarni o'rganishlari, axborot kommunikatsion texnologiyalaridan foydalana olish malakasiga ega bo'lishlari, o'quvchilarning psixologik xususiyatlarini o'rganib, ularni inobatga olishlari, hamkasblari bilan ko'proq tajriba almashishlari lozim bo'ladi.

#### Adabiyotlar ro'yxati

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining - O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi 2019-yil 29-apreldagi PF-5217 sonli Farmoni

2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947 sonli Farmoni.

Assessing Reading, Mathematics and Scientific Literacy: A framework for PISA 2009. OECD, 2009 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2018-yil 8-dekabrda 997-sonli qarori.

Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi // Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi 187-son qarori.

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentyabrdagi "Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi PF-5538-son Farmoni.

Adizov B. R., Khamroev A. R. Modeling activities of teachers when designing creative activities of students // Ilmiy xabarnoma. – C. 69.

Hamroev A. R. Modeling activities of teachers when designing creative activities of students // European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. – 2019. – T. 2019.